

SHAMOILI MUHAMMADIYYA

Bismillahir rohmanir rohim

1. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam na ko`p uzun qomatlik va na past qadlik, balki o`rta bo`ylik, qomatlari nihoyatda mavzun zot edilar. Ranglari na nihoyatda oq va na to`q bug`doyrang edi, balki oq qizillikka moyil, ko`rkamlikda o`n to`rt kechalik oy kabi nurlik edi. Muborak sochlari na nihoyatda buralgan va na nihoyatda yozilgan edi, balki o`rta bir holda o`zlariga yarashgan edi. Alloh Taolo ul kishini qirq yoshida payg`ambarlik maqomiga musharraf etdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`n yil Makkai mukarramada va o`n yil Madinai munavvarada turdilar, va oltmish yoshda dunyodan rihlat qildilar. Muborak boshlarida va soqollarida yigirma adad ham oqargan mo`y yo`q edi.

I z o h: Bu rivoyatda Makkadagi istiqomatlarini o`n yil deyilgan va butun umrlarini oltmish yosh ko`rsatilgan. Buning sababi shuki, arablar goho kasr adadni zikr qilmaydilar. Haqiqatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkai mukarramada o`n uch yil turganlar. Va vafot topganlarida, muborak yoshlari oltmish uchda edi.

2. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`rta qadlik bir zot edilar. Na uzun va na past bo`yli edilar. Jismlari chiroyli, kelishgan, sochlari na buralgan va na yozilgan edi. Chehralari bug`doyrang, qachon yursalar, oldilariga moyil bo`libroq yurar edilar.

3. Baro' ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`rta buyli (biroz uzunga moyil) bir kishi edilar. Ikki yelkalarining o`rtasi keng bo`lib, muborak sochlari ko`p va ikki quloqlarining yumshoqlariga tushib turardi. Egnilarida qizil libos (ya`ni rido' va izorlari) bor edi. Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan husnliroq bir narsani hargiz ko`rmadim.

4. Baro' ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat: Men hech bir zulflik mahbubni qizil libos ichida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan ziyoda husnlik ko`rmadim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak sochlari ikki yelkalariga tushib turar edi. Ikki yelkalarining orasi keng edi. Qad-qomatlari na past va na ziyoda uzun edi.

5. Ali roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam na uzun va na past bo`yli edilar. Ikki kaftlari va ikki qadamlari to`la va go`shtlik edi. Muborak boshlari katta va a`zolarining bo`g`imlari, xar ikki suyaklarining qo`shilgan yeri yo`g`on edi. Siynalaridan kindiklariga qadar uzun va ingichka mo`ylari bor edi. Qachon yursalar, go`yo balandlikdan pastlikka tushib borayotgan kabi yurar edilar. Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan avval ham, keyin ham, u kishiga o`xshagan biron zotni hargiz ko`rmadim.

6. Ali roziyallohu anhudan rivoyat: Ali roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vasflarini bayon qilsalar, der edilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam na uzun va na past bo`ylik edilar, balki o`rta qadlik odamlardan edilar, va muborak sochlari na ziyoda buralgan va na ziyoda yozilgan edi,